likka hamda sog'liq holatiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri prokrastinatsiya muammosini ilmiy psixologiyaning eng dolzarb tadqiqot mavzularidan biriga aylantirgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasini tahlil qilish bir necha xronologik bosqichlarni ajratish imkonini beradi. Prokrastinatsiyaning ilmiy konseptualizatsiyasi P. Ringenbaxning 1971-yilda nashr etilgan "Procrastination Through the Ages" monografiyasi bilan boshlangan bo'lib, ushbu asar fenomenini psixologik tadqiqotlar doirasiga olib kirgan^[3].

A. Ellis va W.J. Knaus prokrastinatsiyaning klinik tadqiqotlari natijalarini chop etgan bo'lsa, J. Burka va L. Yuen konsultativ amaliyotga tayangan holda prokrastinatsiya bilan kurashish usullariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy asar nashr etdilar^[5].

XX asrning 90-yillarida mazkur muammoga bo'lgan ilmiy qiziqishning yangi bosqichi kuzatildi. L. Mann, P. Steel va J.R. Ferrari prokrastinatsiyani o'zlarining markaziy tadqiqot mavzusiga aylantirdilar^[4; 6; 7].

Postsovet hududidagi tadqiqotlar XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan bo'lib, ular V.V. Barabanshchikova^[8], Ya.I. Varvaricheva^[9], N.N. Karlovskaya, V.S. Kovylin^[10], N.A. Rudnova^[11], M.S. Dvornik^[12], A.A. Chevrenidi^[13] kabi olimlarning ishlarida tizimli ravishda rivojlantirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoga oid ishlarning 80 foizdan ortig'i 2000-yildan keyin nashr etilgan^[8]. Mahalliy tadqiqotlarda prokrastinatsiya odatda dangasalik, shaxsning irodaviy tashkillanganligi, o'zini o'zi tashkil etish qobiliyati va motivatsiya tushunchalari bilan bog'liqlik kontekstida tahlil qilinadi.

O'zbekiston psixologiya fanida shaxsning iroda va motivatsion mexanizmlari E.G'. G'oziev va V.M. Kari-mova ishlarida ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ishlab chiqilgan^[1; 2]. Biroq prokrastinatsiya hodisasi aynan ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida hamda o'zbek talabalari populyatsiyasi kontekstida hozirgacha alohida sistemali tadqiqot mavzusiga aylantirilmagan. Bu esa o'zbek psixologiya fanining yetarlicha o'rganilmagan, biroq tobora dolzarblashib borayotgan tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil natijasida bir qator tadqiqot bo'shliqlari aniqlandi.

Birinchidan, prokrastinatsiyaning yetarli darajada konseptuallashtirilmaganligi V.V. Barabanshchikova tomonidan butun sohaning markaziy muammosi sifatida belgilangan. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda o'n beshdan ortiq turli ta'riflar mavjud bo'lib, ular bir-biriga mos kelmaydigan paradigmaviy asoslarga ega^[8; 10].

Ikkinchidan, prokrastinatsiyaning aynan ijtimoiy-psixologik talqini - M.S. Dvornik tomonidan taklif qilingan amaliyot konsepsiyasi doirasida^[12] - alohida empirik tekshiruvni talab etadi.

Uchinchidan, o'zbek ijtimoiy-madaniy kontekstidagi talaba yoshlar uchun prokrastinatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari va prediktorlari hozirgacha aniqlanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi prokrastinatsiya fenomenining tarixiy-etimologik ildizlarini va zamonaviy ilmiy ta'riflarini tahlil qilish hamda uni ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida konseptuallashtirishga yo'naltirilgan nazariy ramkani asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- (1) prokrastinatsiyaning antik davrdan zamonaviy psixologiyagacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish;
- (2) atamaning etimologik kelib chiqishini va konseptual mazmuniy o'zgarishlarini ochib berish;
- (3) zamonaviy ilmiy adabiyotdagi ta'riflarni paradigmaviy mansubligiga ko'ra tasniflash;
- (4) prokrastinatsiya tadqiqotlari sohasining hozirgi rivojlanish darajasini tavsiflovchi markaziy muammolarni aniqlash;
- (5) ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasini mazkur dissertatsiya uchun yetakchi nazariy ramka sifatida asoslash.

Tadqiqotning markaziy gipotezasi quyidagicha shakllantiriladi: prokrastinatsiya shaxsning alohida psixik xususiyati emas, balki ijtimoiy kontekstda o'zlashtiriladigan va muntazam takrorlanuvchi xulq-atvor amaliyoti bo'lib, uning shakllanishida ijtimoiy taqqoslash, ijtimoiy-buyurilgan perfeksionizm va o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmlari o'zaro mushtarak tarzda ishtirok etadi.

Tadqiqot dizayni nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, uning empirik bosqichi mazkur maqola doirasidan tashqarida qoladi va dissertatsiyaning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi. Ushbu nazariy bosqichning asosiy vazifasi keyingi empirik tekshiruvlar uchun mustahkam konseptual poydevor yaratishdan iborat.



Manbalar bazasini tanlashda quyidagi mezonlar qo'llanildi:

- (1) prokrastinatsiya muammosiga bevosita bag'ishlanganlik;
- (2) ilmiy maktab vakilligi yoki tadqiqotchining tan olingan ilmiy nufuzi;
- (3) tarixiy davriylik - fenomenning antik davr manbalaridan tortib, so'nggi o'n yil ichidagi zamonaviy tadqiqotlargacha bo'lgan davrni qamrab olishi;
- (4) til xilma-xilligi - ingliz, rus va o'zbek tillaridagi manbalarning muvozanatli ishtiroki.

Tahlil uchun jami 16 ta birlamchi manba tanlab olindi. Ulardan 5 tasi ingliz tilida, 9 tasi rus tilida va 2 tasi o'zbek tilida nashr etilgan.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasi qo'llanildi. Qiyosiy-tarixiy tahlil prokrastinatsiya hodisasi-ning Gesiod davridan tortib zamonaviy konsepsiyalargacha bo'lgan evolyutsiyasini kuzatish imkonini berdi. Etimologik tahlil "procrastinare" va "procrastinatus" lotin ildizlarining ma'no doirasi hamda konseptual mazmunidagi o'zgarishlarni aniqlashga yo'naltirildi.

Konseptual tahlil prokrastinatsiyaning o'n beshdan ortiq ta'riflarini paradigmaviy mansubligiga ko'ra tasniflashga xizmat qildi. Tematik kontent-tahlil mazkur tushunchaning ijtimoiy-psixologik talqinlarini ajratish maqsadida amalga oshirildi. Hermenevtik tahlil esa M.S. Dvornik tomonidan taklif qilingan ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasining nazariy chuqurligini hamda uning P. Bourdieu amaliyotlar nazariyasi va L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasi bilan aloqalarini ochib berishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning konseptual maqsadlari quyidagi asosiy tushunchalar atrofida tashkil etildi: prokrastinatsiyaning xulqiy yadrosi, akademik prokrastinatsiya, etiko-falsafiy yondashuv, koping-strategiya konsepsiyasi, ijtimoiy-psixologik amaliyot (Dvornik), regulyator potensial yetishmovchiligi va xulqiy pattern. Mazkur tushunchalar tadqiqotning keyingi empirik bosqichida qo'llaniladigan psixodiagnostik instrumentlarning konseptual asosini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prokrastinatsiya hodisasining tarixiy ildizlari

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, muhim ishlarni ongli ravishda kechiktirish odati insoniyat madaniyatida kamida 2800 yillik tarixga ega transmadaniy hodisadir. Eng qadimgi yozma eslatma yunon shoiri Gesiodning miloddan avvalgi 800-yilga oid "Mehnatlar va kunlar" asarida uchraydi: muallif faqat tirishqoqlik muvaffaqiyatni ta'minlashini va ishlarni qoldirish kambag'allikka olib kelishini ta'kidlagan ^[3].

Miloddan avvalgi I asrda Afinada Fukidid prokrastinatsiyaning insonning eng salbiy xususiyatlaridan biri sifatida belgilab, uni faqat urush boshlanishini kechiktirish kontekstida foydali deb hisoblagan ^[14].

Rim hatibi Mark Tulliy Tsitseron (miloddan avvalgi 40-yil) prokrastinatsiyaning kechirib bo'lmaydigan, hatto oliy hokimiyat vakillariga ham xos bo'lgan xususiyat deb baholagan ^[15].

Diniy matnlarda esa prokrastinatsiya, xususan, tavbaning qoldirilishi shaklida, gunoh sifatida qoralangan.

Atamaning lotin ildizlari "procrastinare" (oldinga, ertaga ko'chirish) va "procrastinatus" (pro - oldinga, crastinus - ertaga) fe'llaridan kelib chiqadi. Ingliz tilida atama 1548-yilgi Oksford lug'atida birinchi marta qayd etilgan bo'lib, dastlab cherkov muhitida tavba jarayonini qoldirish ma'nosida qo'llanilgan. Industrlashish davrida atama tijoriy mazmun qabul qilib, prokrastinatsiya "vaqt o'g'risi" metaforasi bilan tasvirlana boshlandi. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, prokrastinatsiya atamasining mazmuniy yuklamasi to'rt asosiy bosqichni bosib o'tgan:

- cherkov ma'nosi (1548-yil - gunoh sifatida);
- industrial ma'no (XIX asr - iqtisodiy buzilish sifatida); klinik ma'no (XX asr - koping-strategiya yoki patologiya sifatida);
- zamonaviy ijtimoiy-psixologik ma'no (XXI asr - o'zini-o'zi nazorat qilish nuqsoni va ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida).

Prokrastinatsiyaning ilmiy o'rganilishining shakllanishi

Hozirgi ma'nodagi prokrastinatsiyaning ilmiy konseptualizatsiyasi XX asrning 40-yillarida - P. Ringenbaxning "Inson hayotidagi prokrastinatsiya" kitobi nashr etilishi bilan boshlangan. Shu davrda A. Ellis va W.J. Knaus prokrastinatsiyaning klinik tadqiqotlari natijalarini chop etdilar; biroz keyinroq J. Burka va L. Yuen konsultativ amaliyotga tayanib, fenomen bilan kurashish usullariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy asar nashr etdilar ^[5]. Ringenbax ishidan keyin akademik prokrastinatsiya alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllandi: o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari - aniq belgilangan muddatlar, vazifalarning o'lchanishi imkoniyati - fenomenning kuzatilishi va miqdoriy o'lchanishini osonlashtirdi.

XX asrning 90-yillari prokrastinatsiyaga ilmiy qiziqishning yangi cho'qqisini belgilab berdi: muammoning tarixiga bag'ishlangan maxsus monografiyalar nashr etildi, tushunchaning nazariy tahlili o'tkazildi, diagnostik metodikalar ishlab chiqildi.

L. Mann Avstraliya talabalari tanlamasida prokrastinatsiya, umidsizlik va o'z-o'zini hurmat o'rtasidagi bog'liqliklarni empirik tarzda o'rganib chiqdi [7].

P. Steel keyinchalik prokrastinatsiyaning meta-tahlilini amalga oshirib, uning natijalarini birlashtiruvchi Temporal Motivation Theory (Vaqtinchalik motivatsiya nazariyasi)ni taklif qildi [4].

J.R. Ferrari prokrastinatsiyaning klinik va madaniyatlararo jihatlarini tadqiq qildi [6].

Postsovet hududidagi tadqiqotlar

Postsovet hududidagi prokrastinatsiya tadqiqotlari XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan bo'lib, hozirgacha jadal sur'atda rivojlanmoqda. V.V. Barabanshchikova ish faoliyatidagi prokrastinatsiyaning tarmoq-spesifik xususiyatlarini o'rgangan [8].

Ya.I. Varvaricheva prokrastinatsiya sabablarini izlashning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatdi [9].

N.N. Karlovskaya prokrastinatsiyani pedagogik psixologiya doirasida regulyator potensial yetishmovchiligi sifatida talqin qildi. V.S. Kovylin 2013-yilda eng katta tahliliy ishlardan birini chop etib, prokrastinatsiyaning ta'riflar katalogini umumlashtirdi [10].

N.A. Rudnova prokrastinatsiyani o'zini-o'zi nazorat qilish konsepsiyasi kontekstida tahlil qildi [11].

M.S. Dvornik prokrastinatsiyaga ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida qarashni taklif etdi [12].

A.A. Chevrenidi prokrastinatsiya tadqiqi sohasining hozirgi holatini umumlashtiruvchi sharh maqolasini nashr etdi [13].

Rus psixologik tadqiqotlarida prokrastinatsiya odatda dangasalik, shaxs irodaviy tashkillanishi, o'z-o'zini tashkil qilish qobiliyati va motivatsiya tushunchalari bilan bog'liqlik kontekstida tahlil qilinadi. Mazkur sohaning dolzarbligi tobora oshib bormoqda: A.A. Chevrenidining ma'lumotlariga ko'ra, muammoga oid ishlarning 80 foizdan ortig'i 2000-yildan keyin nashr etilgan [13].

V.V. Barabanshchikovanning besh markaziy muammosi

V.V. Barabanshchikova prokrastinatsiya tadqiqi sohasining besh markaziy muammosini ajratib ko'rsatadi [8].

Birinchi - konseptualizatsiya yetishmovchiligi: hozirgi adabiyotda yagona, umumqabul qilingan nazariy ramka mavjud emas, o'n beshdan ortiq farqli ta'rif bir-biriga mos kelmaydi.

Ikkinchi - operatsionalizatsiya yetishmovchiligi: turli psixodiagnostik metodikalar bir-birini takrorlamaydigan ko'rsatkichlarni o'Ichaydi, bu esa empirik natijalarni qiyoslashni qiyinlashtiradi.

Uchinchi - tipologiyaning ishlab chiqilmaganligi: prokrastinatsiyaning turlari va shakllarini farqlash bo'yicha metodologik va terminologik ziddiyatlar mavjud.

To'rtinchi - akademik ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lmagan sohalaridagi prokrastinatsiyaning kam o'rgani-lishi: ish faoliyati, oilaviy munosabatlar, salomatlik sohalarida fenomen yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

Beshinchi - prokrastinatsiya oqibatlarining shaxs va jamiyat uchun bahosining bahsilligi: ilmiy ishlarda hodisaning ham destruktiv, ham konstruktiv ko'rinishlari parallel ravishda tavsiflanadi.

Mazkur besh muammo ramkasi prokrastinatsiya tadqiqi sohasining hozirgi rivojlanish bosqichini xarakterlovchi muhim metodologik ko'rsatkichdir. T. Kuhn paradigma yetilishi nazariyasi nuqtai nazaridan, mazkur soha hozircha "normal fan" darajasiga yetmagan va paradigmativiy munozaralar bosqichida turibdi. Mazkur tadqiqot Barabanshchikova ajratgan birinchi (konseptualizatsiya) va uchinchi (tipologiya) muammolarni qisman hal qilishga yo'naltirilgan: o'zbek talabalar tanlamasida prokrastinatsiyaning ijtimoiy-psixologik prediktorlarini aniqlash orqali fenomenning ijtimoiy-psixologik konseptualizatsiyasiga hissa qo'shiladi.

Prokrastinatsiyaning ta'riflar katalogi va paradigmativiy tasnif

Kontent-tahlil natijasida prokrastinatsiya ta'riflari o'zlarining paradigmativiy mansubligi bo'yicha quyidagi guruhlarga tasniflandi.

Birinchi guruh - etiko-falsafiy ta'riflar: dastlab prokrastinatsiya dangasalik tushunchasining sinonimi sifatida ko'rib chiqilgan va iroda kuchini talab qiladigan biror narsani qilish istagi yo'qligi bilan tavsiflangan psixik holat deb tushunilgan.

Ikkinchi guruh - irratsional kechikish konsepsiyalari: C.H. Lay shaxs uchun noo'rin oqibatlar bo'lsa-da, rejalashtirilgan ishlarning ixtiyoriy va irratsional kechiktirilishiga e'tibor qaratdi.



Uchinchi guruh - kayfiyat-regulyatsion ta'riflar: P. Steel va F. Sirois prokrastinatsiyani yoqimsiz emotsional kechinmalardan qochish strategiyasi va qisqa muddatli kayfiyat regulyatsiyasi vositasi sifatida talqin qildilar ^[4; 16].

To'rtinchi guruh - sensatsiya-izlash konsepsiyalari: J.R. Ferrari prokrastinatsiyani vazifani juda qisqa muddatda bajarish jarayonida paydo bo'ladigan o'tkir tuyg'ularga intilish deb hisobladi ^[6].

Beshinchi guruh - xulqiy-funksional ta'riflar: prokrastinatsiya muhim ishlarni "keyinga" qoldirish tendensiyasi, doimiy moyilliyat, ongli kechiktirish xulqiy patterni sifatida talqin qilinadi.

Oldinchi guruh - strukturali ta'riflar: prokrastinatsiya xulqiy, emotsional va kognitiv komponentlarni o'z ichiga olgan, shaxs motivatsion sohasi bilan chambarchas bog'liq kompleks, psixologik jihatdan bir xil bo'lmagan fenomen sifatida ko'rib chiqiladi.

Yettinchi guruh - samoregulyator ta'riflar: N.N. Karlovskaya prokrastinatsiyani shaxs regulyator potentsialining shakllanmaganligi sifatida talqin qiladi.

Sakkizinchi guruh - ijtimoiy-psixologik ta'riflar: M.S. Dvornik prokrastinatsiyani ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida konseptuallashtiradi ^[12].

Mazkur tasnif prokrastinatsiya ta'riflari xilma-xilligi xaos emas, balki paradigmaviy plyuralizmni aks ettirishini ko'rsatadi: har bir ta'rif o'z nazariy paradigmasi ichida konseptual jihatdan tushunarli va asosli. L. Wittgensteinning oilaviy o'xshashlik tushunchasi terminologiyasida prokrastinatsiya - bir-biri bilan oilaviy o'xshashlikka ega xulqlarning oilasidir.

Prokrastinatsiya sabablarining uch yo'nalishi va Dvornik konsepsiyasi

Ya.I. Varvaricheva prokrastinatsiya sabablarini izlash bo'yicha uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadi ^[9].

Birinchi yo'nalish - vaziyatli omillarni tahlil qilish - oqibatlarning kechiktirilganligi, vazifalar xususiyatlari (majburiy qo'yilgan, zerikarli, kundalik, yoqimsiz), baholash tahdidini o'rganishni qamrab oladi.

Ikkinchi yo'nalish – individual farqlarning rolini aniqlash – xavotir, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi, baholanish qo'rquvi, muvaffaqiyat qo'rquvi, mustaqillikni va vaziyat ustidan nazoratni yo'qotish qo'rquvi kabi shaxs xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Uchinchi yo'nalish - demografik ko'rsatkichlarni o'rganish - jins, yosh va millat ta'sirini tahlil qiladi. Mazkur uchlik biopsixososial model bilan parallel ishlaydi va prokrastinatsiyaning to'liq tahlilini ta'minlash uchun barcha uch yo'nalishni qamrab olishni taqozo etadi.

M.S. Dvornik prokrastinatsiyaning yangi ijtimoiy-psixologik talqinini taklif qiladi va u mazkur tadqiqot uchun yetakchi nazariy ramka sifatida ajralib turadi ^[12]. Dvornikning konsepsiyasiga ko'ra, prokrastinatsiya shaxsning izolyatsiyalangan psixik xususiyati emas, balki ijtimoiy-psixologik amaliyot - ya'ni harakatlarning ongliligi, muayyan takrorlanishi va ketma-ketligi, to'plangan tajribaga bog'liqligi hamda o'zgarishlarga moyilligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-madaniy konstrukt. Bu yondashuv P. Bourdieuning praktikalar nazariyasi va H. Garfinkelning konversatsion-analitik metodologiyasi bilan organik aloqaga ega.

Dvornik konsepsiyasining muhim qo'shimchasi shundaki, prokrastinatsiya shaxs tomonidan vazifalarni bajarishga oid subyektiv ma'no, munosabat va emotsional bo'yoq o'zlashtirilishi natijasida turlicha namoyon bo'ladi ^[12]. Bu yondashuv prokrastinatsiyani individual nuqson sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-mazmuniy o'zaro ta'sir mahsuli sifatida tahlil qilishga yo'l ochadi.

Mualliflar o'rtasidagi konseptual farqlarga qaramay, prokrastinatsiyaning xulqiy yadrosi tavsifida ular o'zaro mos keladi. Inson rejalashtirilgan ishlarning ahamiyatini anglaydi, ularni qoldirganda salbiy oqibatlarga uchrashini tushunadi, lekin ishlarga oxirgi daqiqada kirishadi. Muhim vazifalarni hal qilishga sarflanishi mumkin bo'lgan vaqt boshqa, ahamiyatsiz yoki ma'nosiz ishlarga sarflanadi. Mazkur xulqiy yadro barcha ta'riflar tomonidan tan olinadi va aynan u prokrastinatsiya hodisasining empirik aniqlanishi uchun operatsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari prokrastinatsiyaning ilmiy konseptualizatsiyasidagi muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Birinchiidan, fenomenning 2800 yillik tarixi uni transmadaniy va transtarixiy hodisa sifatida xarakterlaydi. Bu xulosa P. Ringenbaxning meta-tarixiy tadqiqotlariga to'la mos keladi ^[3] va prokrastinatsiyani shaxsning konstitsion (psixologik strukturasiga xos) va kontingent (jamiyat sharoitiga bog'liq) komponentlarining o'zaro birikuvini sifatida talqin qilishga olib keladi.

Ikkinchidan, atamaning konseptual evolyutsiyasi - cherkov gunoh tushunchasidan to zamonaviy ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasigacha - psixologiyaning umumiy paradigmaviy o'zgarishlari bilan to'g'ri-dan-to'g'ri parallellik ko'rsatadi: gunoh → buzilish → patologiya → tizimli nuqson → ijtimoiy-madaniy amaliyot. Bu moslik prokrastinatsiya tadqiqotining psixologiya fani ichidagi nazariy oqimlar bilan organik bog'lanishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, mazkur tadqiqot natijalari M.S. Dvornikning ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasini empirik tekshirishga loyiq nazariy ramka sifatida tasdiqlaydi. F. Sirois va T. Pychylning qisqa muddatli kayfiyat regulatsiyasi gipotezasi [16] hamda Dvornik konsepsiyasi [12] bir-birini istisno etmaydi: birinchisi prokrastinatsiyaning mikro darajadagi (individual-emotsional) mexanizmini ochib bersa, ikkinchisi makro darajadagi (ijtimoiy-madaniy) shartlanganligini izohlaydi. Mazkur ikkita konsepsiyaning sintezi prokrastinatsiyaning ko'p qatlamli modelini qurish imkoniyatini taqdim etadi.

O'zbek ilmiy-madaniy kontekstga muvofiqlash nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari quyidagi jihatlariga e'tiborni jalb qiladi. Birinchidan, o'zbek jamiyatida kollektiv-oilaviy qadriyatlar talaba uchun aniq belgilab qo'yilgan ijtimoiy kutishlar majmuasini shakllantiradi, bu esa Dvornik tushunchalarida ijtimoiy-psixologik amaliyotning mustahkam tashqi qo'llab-quvvatlovini ta'minlaydi. Ikkinchidan, Sharq madaniy an'alaridagi vaqt tushunchasi ("sabr-toqat", "ish ham vaqt - tabarruk") prokrastinatsiyaning G'arb ilmiy adabiyotida tavsiflanadigan klassik shaklidan ma'lum tafovutlarni keltirib chiqarishi mumkin. Uchinchidan, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi o'zbek talaba yoshlari uchun prokrastinatsiyaning yangi shakllarini - raqamli prokrastinatsiya, ijtimoiy taqqoslashga oid prokrastinatsiyani - keltirib chiqaradi, bu hodisalar hali ilmiy o'rganilmagan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, prokrastinatsiya fenomenining tarixiy-konseptual evolyutsiyasi yaxlit tarzda umumlashtirilib, ilmiy adabiyotdagi ta'riflar paradigmaviy mansubligi bo'yicha tizimli ravishda tasniflandi. Ikkinchidan, Dvornikning ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasi mazkur tadqiqot uchun yetakchi nazariy ramka sifatida asoslandi va uning nazariy ittifoqchilari (Bourdieu, Garfinkel, Festinger, Hewitt-Flett) bilan organik aloqasi ko'rsatildi. Uchinchidan, o'zbek psixologiya fanida prokrastinatsiya muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllantirildi va uning ijtimoiy-psixologik tahlili uchun konseptual zamin yaratildi.

Amaliy ahamiyat psixologik-pedagogik amaliyot, talabalar bilan ishlash va akademik konsultatsiya sohalarida namoyon bo'ladi. Agar prokrastinatsiya ijtimoiy-psixologik amaliyot sifatida tushunilsa, uning korreksiyasi ham individual psixoterapevtik aralashuv bilan birga ijtimoiy-madaniy darajadagi tadbirlarni - ta'lim muhitini, baholash tizimini, talabalar o'rtasidagi taqqoslash dinamikasini o'zgartirishni - taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglari uchun bu tadqiqot natijalari talabalarga vaqt menejmenti va akademik motivatsiya bo'yicha ish olib borishda foydalanish mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'la oladi.

Tadqiqotning ma'lum cheklovlari ham e'tirof etiladi. Birinchidan, ushbu maqola nazariy-konseptual tabiatga ega bo'lib, ilgari surilgan markaziy gipotezaning empirik tekshiruvi keyingi tadqiqot bosqichida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, manbalar bazasi asosan rus va ingliz tilidagi adabiyotlardan tashkil topgan; o'zbek tilidagi maxsus prokrastinatsiya tadqiqotlarining kamligi tahlilning bir tomonlama xarakterini muayyan darajada saqlab qolgan. Uchinchidan, tadqiqotda asosan Yevropa-Amerika va postsovet ilmiy an'analari doirasidagi konsepsiyalarga e'tibor qaratilgan; sharqona psixologik an'analardagi shunga o'xshash hodisalar ("sabr", "irodaviy kuch", "hilm" tushunchalari) keyingi tadqiqotlar mavzusi sifatida qoldirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelgusi tadqiqot yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi.

Birinchidan, Dvornikning ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasini o'zbek talabalar tanlamasida empirik tekshirish: ijtimoiy taqqoslash (INCOM shkalasi), ijtimoiy-buyurilgan perfekcionizm (Hewitt-Flett MPS) va akademik prokrastinatsiya o'rtasidagi statistik aloqalarni aniqlash.

Ikkinchidan, prokrastinatsiyaning o'zbek ijtimoiy-madaniy kontekstidagi o'ziga xos shakllarini (raqamli prokrastinatsiya, ijtimoiy tarmoqlar muhitidagi prokrastinatsiya) alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish.

Uchinchidan, Barabanshchikova ajratgan beshinchi muammo - prokrastinatsiyaning destruktiv va konstruktiv ko'rinishlarining muvozanatini - o'zbek talabalar materiali asosida tahlil qilish.

To'rtinchidan, prokrastinatsiyaning ijtimoiy-psixologik korreksiyasiga yo'naltirilgan, Dvornik konsepsiyasiga asoslangan amaliy treningni ishlab chiqish va aprobatsiya qilish.



Tadqiqotning asosiy topilmalari quyidagicha umumlashtiriladi.

*Birinchi*dan, prokrastinatsiya 2800 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan transmadaniy fenomen bo'lib, Gesiod va Fukididdan tortib zamonaviy P. Steel, F. Sirois va J.R. Ferrari ishlarigacha bir necha ming yillik evolyutsiyani bosib o'tgan.

*Ikkinchi*dan, atamaning konseptual mazmuni to'rt asosiy bosqichni - cherkov, industrial, klinik va ijtimoiy-psixologik bosqichlarni - bosib o'tgan bo'lib, bu evolyutsiya psixologiya fanining umumiy paradigmaviy o'zgarishlari bilan parallel ravishda kechgan.

*Uchinchi*dan, zamonaviy adabiyotdagi o'n beshdan ortiq ta'rif paradigmaviy mansubligi bo'yicha sakkiz guruhga tasniflanadi va ular xaotik xilma-xillik emas, balki Wittgenstein terminologiyasidagi oilaviy o'xshashlikni namoyon etadi.

*To'rtinchi*dan, V.V. Barabanshchikova ajratgan besh markaziy muammo sohaning hozirgi rivojlanish darajasini xarakterlovchi metodologik ko'rsatkichdir va T. Kuhn paradigma yetilishi nazariyasi nuqtai nazaridan prokrastinatsiya tadqiqi hozircha "normal fan" darajasiga yetmagan.

*Beshinchi*dan va eng muhimi, M.S. Dvornikning ijtimoiy-psixologik amaliyot konsepsiyasi mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun eng yaqin va organik nazariy ramka sifatida tan olinadi.

Tadqiqot natijalari o'zbek psixologiya fanida prokrastinatsiya muammosini alohida ijtimoiy-psixologik tadqiqot obyekti sifatida shakllantirish va uning empirik o'rganilishi uchun konseptual zamin yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Universitet, 2010. - 580 b.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. - 224 b.
3. Ringenbach P.T. Procrastination through the Ages: A Definitive History. - Princeton, NJ: Princeton University Press, 1971. - 245 p.
4. Steel P. The Nature of Procrastination: A Meta-Analytic and Theoretical Review of Quintessential Self-Regulatory Failure // Psychological Bulletin. - 2007. - Vol. 133, № 1. - P. 65-94.
5. Burka J.B., Yuen L.M. Procrastination: Why You Do It, What to Do About It Now. - Cambridge, MA: Da Capo Press, 2008. - 316 p.
6. Ferrari J.R. Still Procrastinating? The No-Regrets Guide to Getting It Done. - Hoboken, NJ: Wiley, 2010. - 224 p.
7. Mann L. Procrastination, Hopelessness, and Self-Esteem // Australian Journal of Psychology. - 1982. - Vol. 34, № 3. - P. 247-253.
8. Барабанщикова В.В., Каминская Е.О. Феномен прокрастинации в деятельности сотрудников оперативно-розыскной сферы // Национальный психологический журнал. - 2013. - № 1 (9). - С. 65-72.
9. Варваричева Я.И. Феномен прокрастинации: проблемы и перспективы исследования // Вопросы психологии. - 2010. - № 3. - С. 121-131.
10. Ковылин В.С. Теоретические основы изучения феномена прокрастинации // Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие. - 2013. - № 2. - С. 22-41.
11. Руднова Н.А. Особенности саморегуляции у людей разного возраста с различным уровнем прокрастинации // Современная зарубежная психология. - 2018. - Т. 7, № 4. - С. 67-75.
12. Дворник М.С. Прокрастинация как практика повседневности: теоретико-методологический анализ // Психология и психотехника. - 2014. - № 6 (69 С. 597-604.
13. Чевренеди А.А. Прокрастинация в современной психологической науке // Вопросы психологии. - 2017. - № 6. - С. 89-100.
14. Фукидид. История // Антология мысли: в 2 т. - М.: Ладомир, 1999. - Т. 1. - 730 с.
15. Цицерон М.Т. О старости. О дружбе. Об обязанностях. - М.: Наука, 1993. - 245 с.
16. Sirois F., Pychyl T. Procrastination and the Priority of Short-Term Mood Regulation: Consequences for Future Self // Social and Personality Psychology Compass. - 2013. - Vol. 7, № 2. - P. 115-127.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.